

# "BOBURNOMA" XV-XVI ASR O'ZBEK ADABIY TILINING

## БЕВАНО YODGORLIGI

Karaxodjaeva Maxpuza Xamidullaevna

pedagogika fanlari nomzodi, dosent

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada "Boburnoma" asarining XV-XVI asrlardagi o'zbek adabiy tilidagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Bobur ijodi she'riy va badiiy uslubda, o'zbek tilining rivojlanishi, so'z boyligi va grammatik tizimi hamda adabiyotga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi. Maqolada "Boburnoma" ning tarixiy va madaniy ahamiyati, uning o'zbek tilini rivojlantirishdagi o'rni va metodologik jihatlari o'r ganiladi. Asar orqali tilning xususiyatlari, uning zamonamizning madaniy va lingvistik jarayonlariga ta'siri, adabiyotshunoslik va tilshunoslik sohasidagi roli ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Boburnoma, o'zbek adabiy tili, tarixiy asar, lug'at, uslub, tilshunoslik, XV-XVI asrlar, badiiy til, grammatik xususiyatlar, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, madaniy meros, adabiy rivojlanish.

**Аннотация:** В данной статье освещается роль и значение произведения "бабурнама" в узбекском литературном языке XV-XVI веков. Анализируется творчество Бабура в поэтическом и художественном стиле, развитие узбекского языка, его словарный запас и грамматическая система, а также его вклад в литературу. В статье исследуется историческая и культурная ценность "Бабур-наме", его роль в развитии узбекского языка и методологические аспекты. Через произведение раскрываются особенности языка, его влияние на культурные и языковые процессы современности, раскрывается его роль в области литературоведения и лингвистики.

**Ключевые слова:** Бабур-наме, узбекский литературный язык, историческое произведение, словарь, стиль, лингвистика, XV-XVI вв., художественный язык, грамматические особенности, языкознание, литературоведение, культурное наследие, литературное развитие.

**BOBURNOMA IS AN INVALUABLE MONUMENT OF THE UZBEK  
LITERARY LANGUAGE OF THE XV-XVI CENTURIES.**

*Karakhodjaeva Makhpuza Khamidullaevna*

*candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor*

*Tashkent University of Information Technology*

**Abstract:** This article highlights the role and significance of the work "baburnama" in the Uzbek literary language of the XV-XVI centuries. The article analyzes Babur's work in a poetic and artistic style, the development of the Uzbek language, its vocabulary and grammatical system, as well as his contribution to literature. The article explores the historical and cultural value of Baburnoma, its role in the development of the Uzbek language, and methodological aspects. Through the work, the features of the language, its influence on the cultural and linguistic processes of modernity, and its role in the field of literary studies and linguistics are revealed.

**Key words:** Baburnoma, Uzbek literary language, historical work, dictionary, style, Linguistics, XV-XVI centuries, artistic language, grammatical features, linguistics, literary studies, cultural heritage, literary development.

**KIRISH**

Bashariyat tarixining ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-madaniy sohalarida salmoqli o'rinni tutgan siymolardan biri buyuk vatandoshimiz Zahiriddin Muhammad Boburdir. Uning "Boburnoma" asari – XYasr oxiri va XVI asr boshlardagi o'zbek adabiyotining beباho yodgorligi hisoblanadi.

Bu asar eski o'zbek tilida yozzilgan bo'lib, "Boburiya, "Voqeoti Boburiy", "Tuzuki Boburiy", "Tabaqoti Boburiy", "Tavorixi Boburuy" kabi nomlar bilan ma'lum. Mirzo Boburning o'zi esa "Vaqoye" va "Tarix" degan nomlarni ishlatgan.

Ushbu asar Bobur Mirzo tomonidan yozilgan bo'lib, O'rta Osiyo, Afg'oniston va Hindistonning tarixini, jo'g'rofiyasini, etnografiyasi, o'simlik va hayvonot olami, xalqlari, odamlarning kasb-kori, tili, hayot tarzi va boshqa hususiyatlari haqida beباho ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan manbadir.

Shuningdek, asarda Mavarounnahr, Hindiston va boshqa mintaqalarning tarixiy shaxslari, voqealarini va madaniyati to'g'risida muhim ma'lumotlar keltirilgan.<sup>1</sup>

"Boburnoma" asarining ilmiy ahamiyati shundaki, u nafaqat tarixiy voqealar haqida aniq ma'lumot beradi, balki o'zbek tili rivojiga ham katta hissa qo'shgan. Asarda qo'llanilgan til va badiiy uslublar o'zbek tilining boy va xilma-xil imkoniyatlarini namoyish etadi. Bobur o'z ijodida tarixiy tasvirlar, shaxsiy kuzatishlar va adabiy iboralarni muvaffaqiyatli birlashtirgan, bu esa asarni jahon adabiyotining qimmatli asariga aylantirgan.

"Boburnoma" da keltirilgan ma'lumotlardan foydalangan holda o'zbek adabiy tili va madaniyati rivojlanishini tahlil qilish tilning o'ziga xos xususiyatlari va ushbu davrdagi ijtimoiy voqealarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Ma'lumki, XV-XVI asrlar o'zbek adabiy tili uchun muhim davr hisoblanadi, chunki aynan shu davrda adabiyot va tilning ko'plab yangi shakllari shakllangan.

Shunday qilib, "Boburnoma" nafaqat tarixiy asar sifatida, balki tilshunoslik, adabiyotshunoslik va madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan ham muhim ilmiy manba hisoblanadi. Ushbu asar tufayli o'zbek tilining rivojlanishi, shuningdek, adabiy til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi haqidagi man'balarni bilib olish mumkin.

## MUHOKAMA VA TADQIQOT NATIJALARI

O'zbekiston tarixida Zahiriddin Muhammad Boburning ismi Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi siyosat va harbiy ishlar arboblari bilan bir qatorda turadi. Hindistonda Boburiylar imperiyasini yaratgan Temuriylar shahzodasi (g'arbiy manbalarda "Buyuk mo'g'ullar imeriyasi") o'z vatanining sodiq o'g'li bo'lib, umrining oxirigacha uning farovonligi uchun kurashgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining 47 yillik hayoti davomida boy adabiy va ilmiy meros qoldirdi. Uning qalamiga mashhur "Boburnoma" asari ham tegishli bo'lib, u dunyo miqyosida tan olingan. Uning turkiy she'riyatining eng nodir durdonalari bo'lgan nafis g'azal va ruboiylaridan tashkil topgan she'riy

<sup>1</sup> Boburnoma. T., Sharq nashriyoti, 2002, 5-b.

devoni, musulmon qonunshunosligini o'zida aks ettirgan "Mubayyin"("Bayon etilgan") asari, she'riyatga bag'ishlangan "Aruz risolasi", musiqa, harbiy ishlar bo'yicha risolalar, "Harb ishi" asari, shuningdek "Xatti Boburiy" maxsus alifbosi va "Risolayi validiyya" asarlari bizgacha etib kelgan<sup>2</sup>.

Boburning butun jahon ommasiga mashhur bo'lган shoh asari "Boburnoma"dir. Sharqshunos olim, akademik V.V. Bartold aytganidek, Bobur ijodiga mansub asarlar orasida "Boburnoma" faqat siyosiy kurashlar hujjatigina bo'lib qolmay, XY asrdayoq haqqoniy ravishda "turkiy nasrning mumtoz realistic namunasi" deb tanilgan yodgorlikdir.<sup>3</sup>

Ma'lumotlar to'plami va ularning ishonchliligi bo'yicha "Boburnoma" o'rta asrlarda O'rta Osiyo, Eron, Afg'oniston va Hindistonda yozilgan shunga o'xshash asarlar orasida tengsiz bo'lган eng muhim va qimmatli tarixiy-proza asari hisoblanadi. Ma'lumki, unda Bobur yashagan davr oralig'ida Movarounnahr, Xuroson, Eron va Hindiston xalqlari tarixii yoritilgan. Asar asosan uch qismdan iborat bo'lib, uning birinchi qismi XV asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda ro'y bergen voqealarni; ikkinchi qismi – XYI asrning oxiri va XYII asrning birinchi yarmida Qobul ulusi, ya'ni Afg'onistonda ro'y bergen voqealarni qamrab oladi. Oxirgi qismda XYII asrning birinchi choragidagi Shimoliy Hindistondagi siyosiy voqealar, mamlakatning geografik ma'lumotlari, uning tabiiy xususiyatlari tasvirlangan, ushbu mamlakatda yashagan xalqlar haqida qiziqarli ma'lumotlarni uchratish mumkin<sup>4</sup>.

Kitob Hindistonda yakunlangan bo'lib, u asosan avtobiografik (memuar janr) xususiyatiga ega va XV asr oxiri - XVII asr boshlaridagi Markaziy Osiyo xalqlari tarixini aks ettiradi.

"Boburnoma"ni varaqlar ekanmiz, ko'z oldimizdan Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Hindiston xalqlariga xos bo'lган fazilat va nuqsonlar, ularning tafakkur olamini kengligi va murakkabligi bilan birga, o'sha davrdagi hayot

<sup>2</sup> Ma'naviyat yulduzları. T., 2001. 268-b.

<sup>3</sup>. Boburnoma. T., Sharq nashriyoti, 2002, 24-b.

Bar'told V.V.Istiriya kul'turi musul'manstva. S.Peterburg, 1918. S.98

<sup>4</sup>. Ma'naviyat yulduzları. T., 2001. 270-b.

muammolari, Bobur davlatidagi siyosoy va ijtimoiy hayotning to'liq manzarasi namoyon bo'ladi. "Boburnoma"da keltirilgan bu tarzdagi ma'lumotlar Bobur davrida yozilgan boshqa tarixiy manbalar: Mirxon, Xondamir, Muhammad Haydar, Muhammad Solih, Binoiy va boshqa tarixchilarning asarlarida bu darajada aniq va mukammal yoritilgan emas. Muallif "Boburnoma"da Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Shayxim Suxayliy, Husayn Ali Tufayliy, Osafiy, Binoiy, Sayfiy Buxoriy, Ohiy, Muhammad Solih kabi ijodkorlar Behzod, Mirzo Ulug'bek va boshqa allomalar haqida o'zining eng yuqori fikr va mulohazalarini bildirib, ularning ijodiy faoliyatiga xolis baho beradi.

Zahiriddin Bobur Navoiy shaxsiyatiga birinchi galda davlat arbobi sifatida ta'rif beradi. Uning "ahli fazl va ahli xunarg'a murabbiy va muqavviyligi"ni ta'kidlar ekan, jamiyatdagi mavqeini aniq belgilaydi, shogirdlarining ko'pligi insoniy xususiyatining bir jihat ekanligini alohida ukdiradi. Ustod Qulmuhammad, Shayxiy Noiy va Husayn Udiyning musiqadagi muvaffaqiyati, Bekzod va Shoh Muzaffarning tasviriy san'atda katta obro' e'tibori Navoiyning "tarbiyat va taqviyati bila" amalga oshganligini ta'kidlaydi.

Bobur Navoiyning "muncha binoyi xayr" qurgani, "Mirzodin(ya'ni Husayn Boyqarodan) nima olmas, balki yilda mirzog'a kulliy mablag'lar peshkash qilishi"-ni keltirib, shoир shaxsiyatini o'quvchi ko'z o'ngida ulug'vor etib, ulug' vazirning bu dunyo moddiy boyliklari omonatligini bilib, yur, davlat manfaatiga xolisanilloh xizmat qilganligini ko'rsatadi<sup>5</sup>.

Bobur buyuk Alisher Navoiy haqida zavq-shavq bilan so'zlaydi: "Alisherbek naziri yo'q kishi edi. Turkiy til bila she'r aytubturlar, hech kim oncha ko'p va xo'b aytqon emas. Olti masnaviy kitob nazm qilibdur, beshi "Xamsa" javobida, yana bir "Mantiq ut-tayr" vaznida "Lison ut-tayr" otliq. To'rt g'azaliyot devoni tartib qilibtur: "G'aroyib us-sig'ar", "Navodir ush-shabob", "Badoyi ul-vasat", "Favoid ul-kibar" otliq. Yaxshi ruboiyoti ham bor".<sup>6</sup>

<sup>5</sup> H.Qudratullaev. Bobur armoni. T., Sharq, 2005. 261-b.

<sup>6</sup> Boburnoma. T., Sharq, 2002. 132-b.

Zahiriddin Boburning Alisher Navoiyga munosabati haqoda so'z ochganda, uning Hirot shahrida qisqa muddat bo'lgani, boshqa joyda turmasdan Navoiyning shaxsiy uyi - "Unsiy"da yashagani, shaharning boshqa joylari qatori ulug shoir qurdirgan binolarni mehr bilan ziyyarat qilib, bu haqda "Boburnoma"da yozganini ta'kidlamaslikning iloji yo'q. Quyidagi parcha Bobur uslubiga xos umumlashtirish mahoratidan bir namuna hamdir: "Alisherbekning o'lthurur uylarikim, "Unsiya" derlar, maqbaqra va masjidi jomeinikim "Qudsiya" derlar, madrasasi va xonaqohinikim, "Xalosiya" va "Ixlosiya" derlar, hammom va dorushshifosinikim, "Safoiya" va "Shifoiya" derlar, borini andak fursatta sayr qildim".<sup>7</sup>

Ma'lumki, "Boburnoma" tarixiy asar, u bo'lib o'tgan haqiqiy voqealarni tavsif qiladi. Lekin bu hol badiiy tasvirlarni qo'llash zaruratini inkor etmaydi.

"Boburnoma" XY-asr o'zbek adabiy nasrining yorqin namunasi sifatida sof badiiy lavhalar, jonli tasvirlar, an'anaviy lirik chekinishlarga boy. Nasriy matn ichida keltirilgan xalq maqol, matallari, iboralari, ibratli o'gitlar, she'riy parchalaruning badiyligini yanada oshiradi, o'ziga xos joziba bag'ishlaydi.

Bobur o'rni bilan kishilarning ichki kechinmalarini, ruhiy holatlarini aks ettirish, biron-bir shaxsning qiyofasini ochish, tasvirlanayotgan voqeanning mazmunini oydinlashtirish, ayrim voqealaridan tegishli tarbiyaviy xulosalar chiqarish uchun lirik parchalar keltiradi:

*Charxning men ko 'rmagan javru jafosi qoldimu?!*

*Xasta ko 'nglum chekmagan dardu balosi qoldimu?!*

1506 yilning qishida Hirotdan Qobulga Qandahor tog' yo'llari bilan og'ir qiyinchiliklar ichida kelayotgan paytida aytilgan bu bayt muallifning pehiy holatida yuz bergen his-tuyg'ularni ifodalashga xizmat qiladi.<sup>8</sup>

Bobur ma'nosiz suhbatlardan qochishga, o'z fikrlarini qisqa, aniq va sodda tarzda ifoda etishga, odam o'zi tushunmaydigan so'zlarni ishlatmaslikka chaqiradi. Xususan, u shunday deydi: "sodda, aniq va toza so'zlar bilan yozing: va sizni o'qigan kishiga ham kamroq ish qoldirasiz".

<sup>7</sup> H.Qudratullaev. Bobur armoni. T., Sharq, 2005. 267-b.

<sup>8</sup> Boburnoma. T., Sharq, 2002. 147-b.

Albatta, "Boburnoma" dan olingan ushbu satrlar Boburning she'riy mahorati uning nasriy asarining tasviriy tiliga chuqur va aniq ta'sir ko'rsatganligini, bu unga katta badiiy go'zallik va keng shon-sharaf bergenligini ko'rsatadi. Bobur Samarqand haqida katta muhabbat bilan yozadi, muallif Ulug'bek rasadxonasing ushbu inshootning mukammalligini, uning ajoyibligini ta'kidlab, unga qoyil qolgan tavsifini unutmaydi.

Bobur kitobida Vahsh va Panjob o'rtasidagi keng hududda yashagan turli afg'on qabilalarining hayoti va mehnat faoliyati batafsil bayon etilgan. Boburnoma Boburning adabiy muhiti haqida ko'plab ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Ushbu ma'lumotlarga asoslanib, o'sha davrda O'rta Osiyoda yashagan va fors va turk tillarida she'rlar yozgan ko'plab kam tanilgan shoirlarning tarjimai hollarini qayta tiklash mumkin. Kitobda shoirning bir qator zamondoshlari, davlat arboblari, rassomlar, musiqachilar, tarixchilarning ko'plab og'zaki portretlari mavjud. Boburning Markaziy Osiyo shaharlarining foydali qazilmalari to'g'risidagi ma'lumotlari juda qimmatlidir. Kitobda nafaqat tabiiy qazilmalar haqida alohida ma'lumotlar keltirilgan, balki ayni paytda ularning mamlakat iqtisodiy hayotiga tayinlanishi qayd etilgan.

"Boburnoma"da tasvirlangan mamlakatlarning flora va faunasi aks etgan. Bobur XV - XVI asrlar boshidagi Hindistonning siyosiy hayotini batafsil tasvirlab, uning tabiatiga qoyil qoladi va uni o'z vatani bilan taqqoslaydi: "bu ajoyib mamlakat; bizning erlarimiz bilan taqqoslaganda, bu boshqa dunyo. Tog'lar, daryolar, o'rmonlar, shaharlar, hududlar, til, o'simliklar va shamollar bizda bo'lgani kabi emas. Kobulga tutash issiq joylar Hindustanga o'xshash bo'lsa-da, boshqa jihatdan ular o'xshash emas deydi: "Bizning viloyatlarg'a boqa o'zga olamedur. Tog' va daryosi va jangal va sahrosi, mavozi' va viloyoti va hayvonot va nabototi, eli va tili va yomg'uri va eli borchcha o'zgacha voqi' bo'lubtur. Kobul tavobii garmsellar agarchi ba'zi ishta Hindustong'a mushobahati bor, ba'zida yo'q. Sind suvini o'tgach, er va suv va yig'och va tosh va el va ulus va roh va rasm tamomi Hinduston tariqidadur".<sup>9</sup>

<sup>9</sup> Boburnoma. T., Sharq, 2002. 197-b.

Bobur o'z faoliyatida doimiy ravishda Hindistonning yirik shaharlarini obodonlashtirish maqsadini ko'zlagan. Davlat va xususiy binolarning tartibi va arxitekturasi, ularning tashqi dizayni va ichki qismi, o'rta Osiyo uslubi bilan juda ko'p narsalarga ega bo'lib, bir vaqtning o'zida hind shakli va uslubi bilan uyg'unlashtirdi, bu ikki madaniyat - hind va O'rta Osiyo o'rtasidagi aloqaga olib keldi. Ushbu jarayon Bobur boshqaruvi davrida yanada rivojlandi, bu ayniqsa Shimoliy Hindistonda uning avlodlari tomonidan qurilgan yirik binolar uslubida sezilarli ko'rindi. Bobur 1526-1530-yillarda Hindistonda juda qisqa vaqt hukmronlik qilganiga qaramay, feodal-parchalangan mamlakatni ma'lum darajada birlashtirishga va er-suv munosabatlari va soliq tizimini tartibga solish kabi muhim tadbirlarni amalga oshirishga muvaffaq bo'ldi. Uning buyrug'i bilan masjidlar obodonlashtirildi, turli maqsadlar uchun binolar qurildi, hammomlar qurildi, quduqlar qazildi va hokazo. Hindistonning yirik shaharlarida - Dehli, Agra, Lahor, Devalpurda Bobur tomonidan manzarali o'simliklar bilan bog'lar barpo etiladi. Bobur bog'larni rejalashtirishda O'rta Osiyo chorbog tizimidan foydalanganligi xarakterlidir. "Boburnoma" dan ma'lum bo'lishicha, 1526 yilda Panipatda Bobur tomonidan Ibrohim Lodi ustidan qozonilgan g'alaba sharafiga Kobul-baxt deb nomlangan katta bog' barpo etilgan, bu uning Hindiston hududidagi birinchi qurilishi bo'lgan. Hindistonda barpo etilgan bog'larda Bobur birinchi marta O'rta Osiyo qovun va uzumlarini etishtirish bo'yicha tajribani qo'llagan. (Hindistonda Anguri Samarqand, ya'ni Samarqand uzumlari deb nomlangan uzum navlari hali ham etishtiriladi).

Aytishimiz mumkinki, "Boburnoma"da keltirilgan she'rlar, ruboiylar shoirning avtobiografiyasi bo'lib, unda she'riy tilda chuqur his-tuyg'ular ta'sirchan tarzda bayon etilgan. Hayot sharoitlari bilan to'qnashuv natijasida yuzaga kelgan tajribalar haqida mohirona hikoya qilinadi, bu haqda shoirning o'zi bemalol gapiradi:

*Kim ko'ruptur, ey ko'ngul, ahli jahondin yaxshiliq,*

*Kimki andin yaxshi yo'q, ko'z tutma ondin yaxshiliq.*<sup>10</sup>

Boburning "Boburnoma" da ona yurtiga bo'lgan muhabbat, Vatanni sog'inish motivlari katta o'rinni tutadi. Sevimli vatanidan ajralish natijasida yuzaga kelgan og'ir hissiy tajribalar Boburning bir qator ruboiy xatlarida yurak nolasi sifatida ifodalananadi:

*Tole' yo'qki jonimg'a balolig' bo'ldi,  
Har ishnikim, ayladim xatolig' bo'ldi,  
O'z erni qo'yib Hind sori yuzlandim,  
Yorab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.*<sup>11</sup>

O'z hayoti davomida charxning ne-ne jabru jafolarini tortgan, "ahli jahondin yaxshiliq" ni kam ko'rgan, sharoit taqozosi bilan "o'z yurtini qo'yib, Hind sorig'a yuzlangan" buyuk bobokalonimiz barakali ijod qilib, insoniyatga nodir badiiy-ilmiy asarlarni meros qoldirdi.

Shunday qilib, Bobur 1526 yilda Gang daryosidan Amudaryogacha bo'lgan hududni birlashtirgan ulkan sultanatni vujudga keltirgan. Bu davlat keyinchalik uning vorislari Humoyun, Akbar, Jahongir, Shoh Jahon va Avrangzeb davrida yanada kengayib, G'arbda "Buyuk mo'g'ullar imperiyasi" nomi bilan shuhrat topgan.

Bobur asos solgan saltanat, mamlakatni ma'lum darajada siyosiy jihatdan birlashtirish, obodonlashtirish va madaniy jihatdan yuksaltirish nuqtai nazaridan Hindiston uchun foydali bo'lgan.

Neru o'zining "Hindistonning kashf etilishi" va "Jahon tarixiga bir nazar" asarlarida Bobur va uning nabirasi Akbarga yuksak baho bergan. Jumladan, u shunday deb yozadi: "Bobur - dilbar shaxs. Uyg'onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor odam bo'lgan. U san'atni, adabiyotni sevardi, hayotdan huzur qilishni yaxshi ko'rardi. Uning nabirasi Akbar yana han dilbarroq va ko'p yaxshi fazilatlarga ega bolgan".<sup>12</sup>

<sup>10</sup> Boburnoma. T., Sharq, 2002. 79-b.

<sup>11</sup>

Ma'naviyat yulduzları. T., 2001. 272-b.

<sup>12</sup> Boburnoma. T.; Sharq, 2002. 7-b.

Javaharlal Neru. Jahon tarixiga bir nazar. M., 1975. 2-T.115-b.

Hozirgi vaqtida "Boburnoma" dunyoning turli mamlakatlaridagi mutaxassislarining e'tiborini tobora ko'proq jalb qilmoqda. "Boburnoma"da keltirilgan ma'lumotlarning qiymati, muallifning samimiyligi va o'zini tanqid qilishi, faktlarning ishonchliligi butun dunyo olimlari tomonidan bir ovozdan tan olingan. "Boburnoma" ma'lumotlari Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga oid yig'ma jildlarga kiritilgan.

Boburning ajoyib ijodiga, xususan, uning "Boburnoma" kitobiga qiziqish butun dunyoda yildan-yilga ortib bormoqda.

Boburning tarixchi, geograf, etnograf, nasr yozuvchisi va shoir sifatidagi xizmatlari hozirda jahon sharqshunoslik fani tomonidan tan olingan. Uning merosi dunyoning deyarli barcha yirik sharqshunoslik markazlarida o'rganilmoqda.

"Boburnoma"da muallif bu o'tkinchi va o'lik dunyoda, Boburning fikriga ko'ra, har kimning rostgo'y, adolatli bo'lishi axloqning asosiy belgisidir, degan fikrni ilgari suradi. U shunday yozadi:

*Qaerda bo'lsangiz ham, rostgo'y vaadolatli bo'ling.*

Zahiriddin Muhammad Boburning buyuk ijodi namunasi bo'lgan "Boburnoma" shoirning nomini asrlar osha abadiylashtirdi.

Boburning qizi, musulmon sharqidagi yagona ayol tarixchi Gulbadan begin otasining adabiy an'alarini davom ettirib, "Humoyunnoma" nomli tarixiy asarini yozdi. "Humoyunnoma" asari o'z mohiyatiga kora, tarixchilar va temuriylar sulolasining taqdiri bilan qiziquvchilar uchun o'ta muhim va qimmatli manba bo'lib, Gulbadanbeginning aytishiga ko'ra, bu kitobda u o'zining shaxsiy kuzatuvlari va atrofidagilarning ko'rigan-bilganlari asosida yozib qoldirgan.

Gulbadanbegin "Humoyunnoma"da Bobur hayoti bilan bog'liq bo'lgan voqealarni tasvirlashga kirishar ekan, "Garchi bu so'zlar podshoh Bobom hazratlarining voqenomalarida aytilgan bo'lsa ham, ular tabarruk tutib, qisqacha yoziladi" deydi.<sup>13</sup>

---

<sup>13</sup> Gulbadanbegin. Humoyunnoma. "Fan"nashriyoti, T., 1959. 24-b.

O'zbekistonda "Boburnoma" ning yangi nashrini nashr etilishi bilan uning iste'dodiga chuqur hurmat va adabiyotimiz va tarixshunosligimiz rivojiga qo'shilgan ilmiy hissasi yuksak e'tirof etildi. Ushbu nashr nafaqat ilmiy maqsadlarga ega, balki keng kitobxonlar uchun Zahiriddin Boburning yorqin merosi bilan yangidan tanishtirish maqsadida mo'ljallangan.

## XULOSA

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng uning ona yurtida Andijon shahrida Boburga haykal o'rnatildi, Bobur nomidagi bog ' ochildi va uning nomi Andijon davlat universitetiga berildi.

U haqida yozuvchilar Oybek, Barot Boyqobulov, Xurshid Davron she'rlar yozgan. Boburning siyosiy faoliyatini akademik S. Azimjonova o'rgangan.

1981 yilda yozuvchi Pirimqul Qodirov Bobur haqida "Yulduzli tunlar" romanini yozgan.

1991-yilda O'zbekiston televideniyesi tomonidan P. Qodirovning "Yulduzli tunlar" romani asosida 10 seriyali "Bobur" televizion videofilm rejesser Maqsud Yunusov tomonidan sahnalashtirilib, bosh rolni, yani Bobur obrazini—O'zbekiston xalq artisti Muhammadali Abduqunduzov tomonidan ijro etildi. Keyinchalik bu videofilm O'zbekistonda ishlab chiqarilgan birinchi videofilm bo'lib, uni turk telekompaniyasi sotib oldi, u videoni ingliz subtitrlari bilan turk tiliga dublyaj qildi. Hozirgi kunda "Boburnoma" fors, golland, ingliz, frantsuz, turk va rus tillariga, jami bo'lib dunyoning 31 tiliga tarjima qilingan. "Boburnoma" asosida xorijiy mualliflar F. A. Stil, F. Grenard, G. Lemba, V. Gaskoni, Munilalalarning romanlari yozilgan.

Maqola "Boburnoma" ning XV-XVI asrlardagi o'zbek adabiy tilining eng muhim yodgorligi sifatida ahamiyati va roliga bag'ishlangan. Mo'g'ullar sulolasining asoschisi Bobur tomonidan yozilgan ushbu asar uning hayotidagi voqealarini, fathlarni va o'sha davrdagi turli xalqlarning madaniy o'zaro ta'sirini tasvirlaydi. Asarning til xususiyatlariga, shu jumladan boy so'z birikmalaridan

foydalanshga, arab va fors tillaridan olingan so'zlarga alohida e'tibor qaratilib, bu madaniyatlarning o'zbek adabiy tili rivojiga ta'sirini ta'kidlaydi.

"Boburnoma" nafaqat tarixiy manba, balki o'sha davrdagi adabiy tilning rivojlanishini, uning uslubi, grammatikasi va leksik boyligini tushunishga imkon beradigan muhim adabiy yodgorlikdir. Ushbu asar nafaqat Boburning shaxsiy tajribalarini, balki o'sha davrning ijtimoiy-madaniy va siyosiy voqeliklarini ham aks ettiradi.

### **Foydalanshgan adabiyotlar:**

1. Azimjonova S. Zahiriddin Muhammad Bobur. Ma'naviyat yulduzлari.- T., 2001. 268-273 b.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma.-T., 2002.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. Избранная лирика. Т., 2006. 63-88ст.
4. Rumer Goden. Gulbadan.- T., Sharq, 2007.
5. Qodirov Pirimqul. Yulduzli tunlar. – Т., 1988.
6. Qudratullaev Xasan. Bobur armoni. Т., 2005.